

## INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALA SIFATIDA

*Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi*

*FarDU Pedagogika yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inklyuziv ta'limning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyati, uni yanada rivojlantirish hamda uning taraqqiyoti, hozirgi kungi islohotlarda uning ari haqida yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyatga o'tish uchun mamlakatimizdagi islohotlar haqida bayon etilgan.

**Abstract.** This article describes the importance of inclusive education in the life of our society, its further development and progress, and its place in the current reforms. Also, this article describes the reforms in our country to move from inclusive education to inclusive society.

**Абстрактный.** В данной статье описывается значение инклюзивного образования в жизни нашего общества, его дальнейшее развитие и прогресс, а также его место в современных реформах. Также в данной статье описаны реформы в нашей стране по переходу от инклюзивного образования к инклюзивному обществу.

**Kalit so'zlar.** inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, qaror, e'tibor, maktab, maktabgacha ta'lim, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy himoya.

**Key words.** inclusive education, inclusive society, decision, attention, school, preschool education, education, social protection.

**Ключевые слова.** инклюзивное образование, инклюзивное общество, решение, внимание, школа, дошкольное образование, образование, социальная защита.

Har bir jamiyat yuksalib rivojlangani sayin ta'lim sifati hamda uning barcha jihatlariga alohida e'tibor qaratishni boshlaydi. Ana shunday islohotlardan aynan inklyuziv ta'limga doir qaror hamda farmoyishlar chiqarilayotgani hamda ularning jamiyatimiz hayotiga tadbiiq etilayotgani e'tiborga arzigulik masala desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, muhtaram Prezidentimizning 13.10.2020 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori qabul qilingani fikrimizning yorqin isboti. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi.

<p><b>I bosqich</b> (2020-2022 y.)</p>	<p><b>II bosqich</b> (2023-2025 y.)</p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• normativ bazani takomillashtirish;</li> <li>• malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;</li> <li>• moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta‘minlash;</li> <li>• zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;</li> <li>• aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish;</li> <li>• alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;</li> <li>• inklyuziv ta‘lim tizimini tajriba-sinov tariqasida alohida ta‘lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• inklyuziv ta‘lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy qilish;</li> <li>• alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;</li> <li>• o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda ta‘lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;</li> <li>• o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish;</li> <li>• o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta‘lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta‘lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) sonini optimallashtirish.<sup>1</sup></li> </ul>

Ushbu qarorning ijrosi bo‘yicha O‘zbekistonda umumta‘lim maktablarida inklyuziv ta‘lim joriy etish reja qilinmoqda. Joriy o‘quv yilida alohida ta‘lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda.<sup>2</sup>

Inklyuziv ta‘limga e‘tibor ortishining asosiy sababi jamiyatning har bir a‘zosini savodli qilish hamda rivojlanayotgan texnologiyalar asrida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishdir. Ushbu qaror hamda farmoyishlar ta‘lim tizimining barcha sohalariga kirib bormoqda. Jumladan, maktabgacha ta‘lim tizimini yanada

<sup>1</sup><https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/alohida talim ehtiejleri bulgan bolalar uchun inklyuziv talim joriy etiladi>

<sup>2</sup>[https://kun.uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi](https://kun.uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F03%2F18%2Finklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi)

takomillashtirish, bolaning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.<sup>3</sup>

Yurtimizda har bir sohaga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'limda ham. Ana shu ishlarning dalili sifatida Toshkentda USAIDning besh yillik "Barcha bolalar muvaffaqiyatli" loyihasi ishga tushirildi. Loyiha inklyuziv ta'lim bilan bog'liq uchta muhim yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi: inklyuziv ta'lim uchun qulay o'quv-metodik materiallar, o'qituvchilar uchun amaliyot va maktab muhitini yaratish, shu bilan birga asosiy manfaatdor tomonlar, ya'ni o'qituvchilar va nogironligi bo'lgan shaxslar bilan birgalikda ishlab chiqilgan barqaror siyosatni rivojlantirish.

Tadbir yakunida Creative Associates International, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari tomonidan sifatli inklyuziv ta'limni tashkil etish va O'zbekistondagi barcha bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida hamkorlikda ish olib borish nazarda tutilgan hamkorlik kelishuvi imzolandi.

Mamlakatimizda bunday loyihalar bardavom bo'lmoqda. Xususan, ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va mas'ul idoralar bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazmalar zalida "Inson uchun" savdo ko'rgazmasi tashkil etilmoqda. Ushbu ko'rgazmada 200 ga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslarni band qilgan tadbirkorlar, shu jumladan nogironligi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va hunarmandlar o'z mahsulotlari (mebel, tekstil, poyabzal, sport, oziq-ovqat, texnika, poligrafiya va boshqa

<sup>3</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-limda-inklyuziv-ta-lim-tizimini-rivojlantirish>



turdagi tovarlar) bilan ishtirok etadi. Ushbu ko'rgazma joriy yilning 1-2-may kunlari o'tkaziladi. Ushbu loyihaga yurtimizning barcha hududlaridagi tadbirkorlarni jalb qilish maqsadida ko'rgazma doirasida 300 ga yaqin tadbirkorlar bilan hududlarda masofadan turib savdolar tashkil etiladi. Bunday tadbirlarning amalga oshirilishidan asosiy maqsad jamiyatimizning har bir a'zosini, jumladan, imkoniyati cheklangan fuqarolarni ijtimoiylashtirish, ularning jamiyatimiz uchun kerakli shaxs ekanliklarini his etishlariga ko'maklashishdir.

**Xulosa qilib aytganda**, jamiyatimizdagi har bir shaxs, kim bo'lishidan qat'iy nazar u-inson. Uni kamsitish yoki qadrini oyoqosti qilishga hech kimning haqqi yo'q. Shunday ekan, atrofimizdagilarga befarq bo'lgan holda ularga doimo yordamlashishimiz, imkoniyati cheklanganlarni "nogiron" deya chetga surmasligimiz kerak. Aksincha, ularni hayotimizning bir bo'lagi sifatida qadrlashimiz hamda ularga tabassum ila boqishimiz ham diniy, ham dunyoviy tomondan insoniylikning belgisidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жуманиязова, З. Р. (2021). ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 119-122.
2. Reimovna, Z. Z. Education of Preschool Children to Be Educated, Educated, Physically Healthy, Strong. JournalNX, 696-699. 4. Жуманиязова, З. Р. (2021). ЎЙИН-ДОИМО ҲАЁТНИ АКС ЭТТИРАДИ. Экономика и социум, (10 (89)), 651-654.
3. Jumaniyazova Zlixa Reymovna. (2023). XALQ O'YINLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AKLOQIY TARBIYALASH. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 76–82. Retrieved from
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
5. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, 2(11), 985-991.
6. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, 2(9), 309-314.
7. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O'ZLASHTIRISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 535-542.

8. Yusufovich, A. A., & O'G'Li, E. O. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B3), 40-46.
9. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O 'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, 14(3), 33-36.
10. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O'QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, 4(1), 52-59.
11. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
12. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(7).
13. Tojimatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.
14. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
15. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
16. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
17. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
18. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.